

## TILSHUNOSLIKDA DARAJA PARADIGMASI VA DARAJA KATEGORIYASI MASALALARI TALQINI

Kasimova Muqaddas Bekpo'latovna

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7525529>

**Annotatsiya:** Maqolada tilshunoslikda paradigma tushunchasining ahamiyati va o'rganilishi, paradigma tushunchasiga oid tilshunos olimlarning qarashlari yoritilgan. Darajalanish paradigmasi, graduonimiyaning lisoniy paradigma sifatida namoyon bo'lishi, graduonimiyaning paradigma ekanligi haqida fikr yuritilib paradigmatic munosabat tarkibida graduonimik paradigma ham borligi, graduonimlar orasidagi munosabat graduonimik munosabat bo'lib, paradigmatic munosabatning bir turi hisoblanishi haqidagi ilmiy fikrlarni keltirishda olimlarning tadqiqotlariga asoslanilgan.

**Kalit so'zlar:** sistem-struktur tilshunoslik, sistemaviy qonuniyatlar nazariyasi, paradigma, paradigmatic munosabatlar, lisoniy paradigma, lug'aviy paradigma, graduonimik paradigma.

Dunyo ilm-fanida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida barcha fanlarning sistemasi va uni tashkil etuvchi birliklarini o'rganish asosiy planga olib chiqildi. Natijada psixologiyada struktur psixologiya, matematikada struktur matematik nazariya, tilshunoslikda esa sistem-struktur tilshunoslik yo'nalishlari vujudga keldi. Jahon tilshunosligida tilga sistem yondashuvning kirib kelishi natijasida tilshunoslikda paradigma tushunchasi paydo bo'ldi. Paradigma tushunchasi dastlab falsafaning terminologik apparati sifatida ishlatilgan. Ushbu tushunchani G.Bergman va T.Kunlar falsafiy termin sifatida qo'llagan bo'lsa, tilshunoslikka sistemaviy qonuniyatlar nazariyasini olib kirgan tilshunos olim Ferdinand de Sossyur paradigma tushunchasini tilshunoslik termini sifatida so'z shakllari tizimiga hamda grammatik shakllar hosil qilish qolipiga nisbatan qo'llagan.

Tilshunoslikda paradigma deyilganda bir tizimga mansub biroq grammatik jihatdan farqlanuvchi so'zlarning yig'ilmasi tushuniladi. "O'zbek tili izohli lug'ati"da paradigmaga quyidagicha ta'rif beriladi: "PARADIGMA [*yun.* paradeigma — misol, namuna] *tlsh.* 1. Til birliklari, grammatik shakllarning umumiy ma'nosiga ko'ra birlashuvchi, xususiy ma'nosiga ko'ra farqlanuvchi tizimi."

2. Biror so'zning turlanish yoki tuslanish shakllari tizimi.<sup>1</sup>

Atoqli tilshunos olim Ferdinand de Sossyur lisoniy birlik orasidagi assotsiativ (paradigmatic) munosabatni lisoniy birlik uchun eng asosiy munosabat sifatida

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.230.

baholagan holda paradigmatic munosabatlar haqida quyidagicha fikr bildirgan: “Ongimizda paydo boʻladigan assotsiativ guruhlar munosabatning qandaydir umumiylikka ega boʻlgan boʻlaklarini oʻzaro yaqinlashtirish bilan chegaralanib qolmaydi. Har bir holatda aql ularni bogʻlovchi munosabatlarning xarakterini ilgʻab oladi va bu bilan har-xil munosabatlar qancha boʻlsa, shuncha assotsiativ qatorlarni tashkil qiladi.”<sup>2</sup>

F. de Sossyurning fikrlariga ergashgan holda oʻzbek tilshunoslari paradigma boʻlishi uchun bir qancha shartlarga javob berishi lozimligi aytib oʻtishadi. “Bir paradigma tarkibiga kiradigan birliklar quyidagi xususiyatlarga ega boʻlishi kerak:

- 1) paradigmadagi bitta birlik eslanganda, shu paradigmaga kiruvchi boshqa aʼzo ham xotirlanishi (esga olinishi);
- 2) muayyan nutq sharoiti uchun oʻzaro paradigmatic munosabatda turgan birlikdan, yaʼni paradigma aʼzolaridan bittasi tanlanishi;
- 3) bir paradigmaning aʼzolari oʻzaro oʻxshashlik bilan birga, har bir aʼzo ikkinchisidan qaysidir bir xususiy belgisi bilan farqlanib turishi;
- 4) paradigma aʼzolari nutqda bir pozitsiyada (mavqeda) kelib, bir-birini maʼlum holatda almashtira olishi, oʻrnini egallashi.

Lisoniy paradigma va uning aʼzolariga nisbatan F.de Sossyur tomonidan qoʻyilgan bu talab qariyb yuz yildan beri deyarli oʻzgarishsiz saqlanib kelmoqda. Paradigma, qamroviga koʻra, katta va kichik yoki tashqi va ichki paradigmaga boʻlinadi. Bu paradigmalar bir-biriga nisbatan olinadi. Masalan, undoshlar jarangli va jarangsizga boʻlinadi.

*Paradigmatic munosabat* atamasining muqobillari sifatida *oʻxshashlik munosabati*, *assotsiativ munosabat* atamaları ham ishlatiladi. *Tizim* soʻzi ham koʻp hollarda *paradigma* atamasi oʻrnida ishlatiladi: *unlilar tizimi*, *kelishiklar tizimi* kabi. Jarangli va jarangsizlar alohida kichik yoki ichki paradigma boʻlib, undoshlar tizimi bir butun holda ularga nisbatan katta yoki tashqi paradigma deyiladi.

Lisoniy birliklar tizimining qaysi lisoniy sathga mansubligiga koʻra, *fonetik*, *leksik*, *morfologik*, *sintaktik paradigma* farqlanadi.”<sup>3</sup> Ushbu fikrlardan shu narsa anglashilmoqdaki, tilshunoslikda ikki asrdan beri F.de Sossyur tomonidan paradigmaga qoʻyilgan talab hozir ham oʻzgarishsiz qolayotganini barchamiz koʻrishimiz mumkin.

<sup>2</sup> Ф.Д. Соссюр. Умумий тилшунослик курси. (И.Мирзаев таржимаси). – Тошкент: «Navoiy Universiteti» нашриёт - матбаа уйи, 2019. – Б.145.

<sup>3</sup> Sayfullayeva R. va b. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Oʻquv qoʻllanma. – T.:Fan va texnologiya, 2009. – B.60.

Professor R.Sayfullayeva hammuallifligidagi “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” o‘quv qo‘llanmasida graduonimiyaning lug‘aviy paradigma ekanligi haqidagi quyidagi fikrlari biz uchun to‘la asos bo‘la oladi. “Graduonimik qator lug‘aviy paradigmaga qo‘yiladigan quyidagi talabning barchasiga javob beradi:

- 1) lug‘aviy paradigmaning bitta yetakchi leksema (dominanta) atrofida birlashishi;
- 2) lug‘aviy paradigmaning ochiqqligi;
- 3) lug‘aviy paradigmaning boshqa kattaroq paradigma tarkibiga yetakchi leksema bilangina kirishi;
- 4) lug‘aviy paradigmadagi qurshov leksemaning dominant leksema bilan osonlikcha almashtirila olishi.”<sup>4</sup>ga e‘tibor qaratgan holda lug‘aviy paradigmadada dominanta bo‘lishi, dominanta atrofida birlashishi va boshqa kattaroq paradigmaga dominanta orqali kira olishi, dominantaning qurshov leksemaning o‘rnida almasha olishi kabilar nisbiy xarakter kasb etishi, hamma graduonimik qatorlarda olima tomonidan sanalgan holatlar to‘la amal qilmasligi ham mumkinligini ta’kidlab o‘tmoqchimiz. Bizningcha olima tomonidan aytilgan ushbu tasnif graduonimiyaning paradigma bo‘la olishini isbotlay oladi.

Professor B.Mengliyev graduonimiyaning paradigma ekanligi haqida fikr yuritib paradigmatic munosabat tarkibida graduonimik paradigma ham borligini qayd etadi. “Graduonimlar orasidagi munosabat graduonimik munosabat bo‘lib, paradigmatic munosabatning bir turi hisoblanadi. Graduonimik munosabat bilan birga sinonimik, antonimik munosabatlarning barchasida eslatib turish xususiyati mavjud. Paradigma a‘zolari teng qiymatli va teng huquqli birliklardir. Shuning uchun ular bir paradigmaga mansub bo‘ladi”<sup>5</sup>. Ushbu fikrga tayangan holda graduonimlarni paradigma sifatida e‘tirof etish mumkinligini qayd qilgan holda paradigma birliklarini o‘zaro bog‘lovchi vosita lisoniy ziddiyat ekanligini quyidagi fikr yordamida asoslashimiz mumkin. “Lisoniy paradigmadada birliklarni bir-biriga bog‘lab turuvchi, paradigmaning yashovchanligini ta‘minlovchi omil lisoniy ziddiyatdir. Lisoniy ziddiyat falsafadagi qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunning tildagi xususiylashuvi, ko‘rinishidir”<sup>6</sup>. Shuning bilan birga tilshunoslikda “Lug‘aviy graduonimik qatorda dialektikaning eng umumiy qonunlari mavjudligi ham e‘tirof etiladi:

- a) graduonimik qatorda belgining darajalanib, oshib yoki kengayib borishida miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishi qonuni tajallilanadi;

<sup>4</sup> Yuqoridagi manba – B.170.

<sup>5</sup> Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. T.: “Tafakkur bo‘stoni” 2018. – 60-b

<sup>6</sup> Yuqoridagi manba -62-b

b) graduonimik zanjirning ikki chekka uchi ma'lum bir belgining tasdig'i bilan birga, bir-birini inkor etishida inkorni inkor qonuni namoyon bo'ladi;

d) bir-birini inkor etuvchi (antonimik munosabatda turgan) leksemalarning bir yetakchi leksema (dominanta) atrofida birlashib, bir lug'aviy ma'naviy qatorni – paradigmani, butunlikni tashkil etishda qarama-qarshilik birligi va kurashi qonuni voqelanishi.”<sup>7</sup> kabi umumiy qonuniyatlar asosida namoyon bo'ladi.

Tilshunoslikda munosabat tushunchasi ham keng qamrovli bo'lib bir nechta holatlarni ifodalab keladi. Masalan:

**“MUNOSABAT** [a. مناصبت *munosiblik, muvofiqlik; joizlik; qarindoshlik; aloqadorlik*].

1. *Kishilar, tashkilotlar, davlatlar o'rtasidagi bordi-keldi. Oldi-berdi muomalalari; tirikchilik, moddiy va ma'naviy hayot bilan bog'liq bo'lgan aloqa.* 2. *Kishining voqelikka, voqelikdagi narsalarga, hodisalarga qarashi, yondashish prinsipi.* 3. *Muayyan tizimdagi elementlarning joylashish xarakteri va ularning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi falsafiy tushuncha.* 4. *Biror ish, harakat, gap kabilarga daxli bo'lgan narsa, tegishli asos; bois, daxl. Bu ishga sizning gapingizning hech qanday munosabati yo'q*”<sup>8</sup>. Yuqoridagi ta'riflardan uchinchi biz tahlil qilayotgan masalaning mohiyatini o'zida aks ettiradi. Paradigmatik munosabatlarni tahlil qiladigan bo'lsak, o'zaro o'xshash belgilar asosida bir guruhga birlashish hodisasi sifatida qaraladi. Tilshunos olim B.Mengliyev darajalanish (graduonimik) paradigmasini quyidagicha tushuntiradi:

“*aytishmoq – koyishmoq– janjallashmoq – yoqalashmoq – do'pposlashmoq – yoqa vayron bo'lishmoq – qoniga belanishmoq* qatori“ ifoda bo'yog'ining oshib borishi” belgisi asosida darajalanadi va farqlanadi. Bu qator *darajalanish* (graduonimik) *paradigmasi* deyiladi”<sup>9</sup>. Darhaqiqat, darajalanish paradigmasi ifoda bo'yog'ining oshib borishi, salbiylik bo'yog'ining oshib borishi, bo'yoqdorlik belgisining ortiq-kamligi, mutaxassislik salohiyatining oshib borishiga ko'ra, o'lchov hajmining oz-ko'pligiga ko'ra, ishoradagi uzoq-yaqinligiga ko'ra, holat belgisining kuchiga ko'ra, hajm ko'lamining kengligiga ko'ra, miqdor-hajmning ko'plik darajasiga ko'ra, zarar darajasining ortiqqligiga ko'ra, qarindoshlikning davomiyligiga ko'ra kabi belgilari asosida darajalanishi va farqlanishini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi nazariy fikrlarning barchasi graduonimiyaning paradigma ekanligi asoslash uchun yetarli hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

<sup>7</sup> Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – T.,:Fan va texnologiya, 2009. – B.171.

<sup>8</sup> Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. **Toshkent. “Tafakkur bo'stoni”.** 2018. – B. 56

<sup>9</sup> Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. T.: “Tafakkur bo'stoni” 2018. – B. 60

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006.
2. Ф.Д. Соссюр. Умумий тилшунослик курси. (И.Мирзаев таржимаси). – Тошкент: «Navoiy Universiteti» нашриёт - матбаа уйи, 2019. –
3. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o`zbek adabiy tili. O`quv qo`llanma. – T.,:Fan va texnologiya, 2009.
4. Mengliyev B. Hozirgi o`zbek tili. Darslik. T.: “Tafakkur bo`stoni” 2018.